



JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING JAVOBGARLIGI

Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich

AndQXAI, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
sanjarisomiddinov147@gmail.com

Alijonova Durdona Dilmurodjon qizi

AndQXAI, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
durdonaalijonova28@gmail.com

O'rmanova Muxlisa Dilshodjonovna

AndQXAI, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
muxlisaormanova13@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- November 2023 yil

Ma'qullandi: 25- November 2023 yil

Nashr qilindi: 31-November 2023 yil

KEY WORDS

sub'ekt, jinoyat, aqli rasolik, huquq layoqati, muomala layoqati, yuridik shaxs, jismoniy shaxs.

ABSTRACT

Maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning huquq layoqati hamda muomala layoqati, jismoniy va yuridik shaxslarning yuridik javobgarligi shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning o'zaro farqli jihatlari, xorijiy mamlakatlarda yuridik shaxslarning javobgarligi kabi masalalar haqida ma'lumotlar berilgan va tahlil qilingan.

Yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligini yortishdan avval ularning o'zaro farqi, huquq va muommala layoqati haqida gapirib o'tishni lozim deb topdim. Jismoniy shaxs deb ma'lum bir davlat fuqarosi bo'lgan va fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lgan shaxslar tushuniladi. Jismoniy shaxslar o'z nomidan ish ko'radilar. Ularning huquq va muomala layoqati ham yuridik shaxslarnikidan tubdan farq qiladi. Jismoniy shaxslar meros qoldirish, mulkka ega bo'lish, sudda o'z nomidan o'zlari bevosita ishtirok etish yoki vakillarini ishtirok etishi, vasiyat qoldirishi, bankka omonat qo'yishi, tadbirkorlik, fermerlik bilan shug'ullanishi mumkin bo'ladilar. Jismoniy shaxslarning huquq layoqati tug'ulganida vujudga keladi. Misol uchun yashash huquqi, bepul tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, bepul ta'lim olish huquqi kabilarni keltirish mumkin. Endi ularning huquq layoqati qachon bekor qilinadi degan savol tug'ulishi tabiiy. Bunga shunday deb javob berish mumkin ularning huquq layoqati vafot etgandagina bekor bo'lishi mumkin. Qisqa qilib aytganda jismoniy shaxslarda huquq layoqati tug'ulgandan to vafot etguniga qadar bo'lgan davrda u bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning muommala layoqati haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ularning to'liq muommala layoqati 18 yoshga kirgandagina vujudga keladi. Ba'zi hollarda erta muommala layoqatiga ega bo'lish holatlari kuzatiladi. Bunga misol qilib emansipatsiyani olish mumkin. Emansipatsiya bu voyaga yetmagan shaxsni to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilish uchun ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyning roziligi bilan vasiylik va homiylik organining qaroriga muvofiq yoxud bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, sudning qarori bilan amalga oshiriladi. Ota-ona, farzandlikka oluvchilar va homiy emansipatsiya qilingan voyaga yetmagan shaxsning majburiyatlari bo'yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo'yicha javobgar bo'lmaydilar. Jismoniy shaxslarning muomala layoqati sud tomonidan cheklab qo'yilishi mumkin.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasiga muvofiq, o'z mulkiga, xo'jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot - yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak. Ushbu kodeksning 40-moddasiga asosan, yuridik shaxslarning foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) kabi turlari bo'lishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin. Ushbu qonunga ko'ra, yuridik shaxs o'zining ustav va boshqa ta'sis hujjatlari asosida ish olib boradi. Qonunning 41-moddasiga ko'ra: "Yuridik shaxs - yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi" [1].

Yuridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Yuridik shaxs qonunda ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishi mumkin. Yuridik shaxsning huquqlari qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Yuridik shaxsning huquqlarini cheklash haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Muomala layoqati ham u tuzilgan va davlat ro'yxatidan o'tgan paytda boshlab vujudga keladi.

Endi jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak. Jinoiy javobgarlikka o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxslar tortiladi. Agar shaxs o'n olti yoshga to'lgan, lekin muomala layoqatiga ega bo'lmasa bunday shaxslar jinoyat sub'ekti bo'lmaydi. Jismoniy shaxslar jinoyat sodir etgunga qadar jinoyat sub'ekti yoshiga yetmagan bo'lsa ham jinoyat sub'ekti bo'lmaydi [2].

Yuridik shaxslarni esa jinoiy javobgarlikka tortib bo'lmaydi. Bunga bir qancha sabablar mavjud. Misol uchun, jinoiy javobgarlikka tortish uchun shaxs 16 yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxs bo'lishi kerak. Yuridik shaxs aqli raso bo'la olmaydi. Shu bilan birga jinoiy javobgarlikka faqat jismoniy shaxslargina tortilishi mumkin. Jinoyat an'anaviy ravishda ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) bo'lishi kerak. O'ylab qaraganda harakat yoki harakatsizlikni faqat jismoniy shaxslargina sodir etishi mumkin. Bunday ijtimoiy xavfli qilmishni faqat yuridik shaxs nomidan ish yuritadigan rahbarlarga sodir etishi mumkin. Yuridik shaxsning o'zi bunday ijtimoiy xavfli qilmishni o'zlari sodir eta olmaydilar. Shu kabi bir qator muamolarining mavjudligi tufayli yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortib bo'lmaydi. Biroq, ba'zi chet el mamlakatlarida yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishadi. Misol uchun, Moldova Respublikasining Jinoyat kodeksining 21-moddasida jinoiy javobgarliklarning turlari keltirilgan [3]. Bular jarima, muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanishni taqiqlash, tugatish. Bular asosan biznes bilan bog'liq jinoyatlarda, giyohvand moddalar oborot qoidalarini buzganda, intellektual mulk qoidalarini, ekologik qoidalarini, iqtisodiy jinoyatlar va boshqalar uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda esa yuridik shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortish masalasi yo'q. Lekin, soliq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O'zbekistondagi kamchiliklardan biri sifatida yuridik shaxslarning javobgarligi mavjud emasligini olishimiz mumkin. Agarda yuridik shaxslar uchun ham javobgarlik belgilansa bu haqiqiy inqilob bo'ladi deya olishimiz mumkin. Yuridik shaxslarning qonuniy harakatini nazorat qilib turish hamda javobgarlik masalasi yuzasidan quyidagilarni taklif qilaman:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o'zgartirish kiritib, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilash lozim;
2. Ular uchun jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish ta'sir choralari kabi javobgarlik turlarini joriy qilish hamda

xorijiy davlatlarning bu boradagi qonunchiligini o'rganib, ijobiy tomonlarini o'zimizning milliy qonunchilik tizimimizga tadbiq etish darkor.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, birinchi qism. 21.12.1995-yil, <https://www.lex.uz/docs/-111189>
2. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) darslik, M.H. Rustamboyev, B.J. Ahrorov, Toshkent-Ilm ziyo-2011. 116-118 betlar.
3. <https://kun.uz/uz/news/2018/04/30/uridik-sahslarni-zinoij-tartibida-zazolas-kuzlanmokda>



**INNOVATIVE
ACADEMY**